

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024



No 2

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 598 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 29-fevralda ruxsat etildi.

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Musyeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.



MUNDARIJA

Ilm-fanga baxshida umr Baxtiyor Islamov	8
Kichik biznesni rivojlantirishda “yashil” iqtisodiyotni keng tatbiq qilishning ahamiyati Gulnora Abdurahmonova Kalandarovna, Sanjar Baxodirovich G’oipnazarov	10
Brand Capital as a Determinant of Institutional Prestige and Student Choice in the Higher Education System ... Zufarova Nozima Gulamiddinovna	16
Inson va atrof-muhit dialektikasi: nomutanosiblik ko’rsatkichlari va ekologik muammolar Butaboyev Maxammadjon Tuychiyevich, Maxmudov Nosir Maxmudovich	24
Yashil budjetlashtirish va uni O’zbekistonda joriy etish istiqbollari Meyliev Obid Raxmatullayevich, Gofurova Kamola Xayrulla qizi	30
Iqtisodiyotda ta’lim va fan integratsiyasining asosiy yo’nalishlari Yormatov Ilmidin Toshmatovich	35
Transport vositalari va yo’llar turizm transport infratuzilmasini rivojlantirishning muhim omilidir Aqzamov Shaxboz Akmalovich	39
Bank xizmatlarini raqamlashtirish orqali samaradorligini oshirish A. X. Salamov	44
Biznes-reja baliqchilik xo’jaligi rivojlanishi uchun asos sifatida Dosmurotova Shaxista Kengashovna	48
Mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va uning lizing munosabatlari rivojlanishi bilan bog’liqligi Axmediyeva Aliya Toxtarovna	55
Turizmni rivojlantirish imkoniyatlari Ziyadullayev Ilhom Narkabilovich	63
Tijorat banklari depozit operatsiyalari samaradorligini oshirish muammolari va ularni bartaraf etish yo’llari Shamsiyev Nodir Muratovich	67
Hududlarni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning samaradorligini oshirish masalalari Shagazatov Oybek bahodirovich	72
Hududlar biznes muhitini rivojlantirish va samarali boshqarish yo’nalishlari Davlatov Sanjar Abdimannonovich	76
Ijtimoiy rivojlanish xulq-atvor paradigmasida yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning nazariy asoslari Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	80
Korxonalar innovatsion faoliyatida raqamli transformsiyaning muhim yo’nalishlari Yuldasheva Kamola Miraliyevna	84
O’zbekistonda agroturizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish (Buxoro viloyati misolida) Yoriyeva Farangiz Murodillayevna	89
Innovatsion tadbirkorlik muhitini kompleks baholashda xalqaro tashkilotlar tajribasi Nazarova Umida Avazovna	94
Turizm faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish samaradorligini oshirishning ayrim usullari Mirzaxodjayev Alisher Botirovich	98
Globallashtirish sharoitida transchegaraviy suv resurslardan samarali foydalanishni boshqirish Mirzayev Musurmon Umidullayevich	103
Surxondaro viloyati iqtisodiyotida kichik biznes va tadbirkorlikning o’rni va ahamiyati Fayziyeva Aziza Azamat qizi	108
Ta’lim muassasalarida xarajatlarni moliyaviy nazorat etishning samaradorligi tahlili Eshonqulov Davlatjon Rajabboyevich	113
Ta’minot zanjirini boshqarishda transport logistikasi usullarini takomillashtirish Zoxidova Nazokat Berdimurot qizi	119
Blokcheyn texnologiyasida xavfsizlik masalalari Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich	123
Развитие цифровой трансформации банковского сектора Республики Узбекистан Абдурахманова Матлуба Махамадаминовна	129



Asosiy fondlarni hisoblash va baholash usullarini takomillashtirish istiqbollari.....	135
Rixsimbayev Odiljon Qobiljonovich	
Marketingda tovar harakati tizimini optimallashtirish va modellashtirish	141
Sherzod Xolmurodovich Pardayev, Kamola Abdujabborovna Pardayeva	
Iqtisodiy rivojlanish uchun strategik taqsimlash strategiyalari:	
Investitsion Fond Portfellarning qiyosiy tahlili.....	148
Sultonboeva Munira bahodirovna	
Soliq munosabatlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati: ilmiy-nazariy qarashlar.....	154
Axrorov Zarif Oripovich, Saidmurodov Feruz Sodiqjon o'g'li	
Взаимосвязь инвестиционной стратегии с оценкой эффективности инвестиционного проекта	159
С. С. Алиева, А. Назаров	
Erkin iqtisodiy zonalarining faoliyati va boshqaruv mexanizmini takomillashtirish.....	167
Sheraliyeva Saida Azatovna	
Xizmat safari xarajatlari hisobining huquqiy asoslari	170
Ergashev Sarvar Xudoynazarovich	
Инклюзивное образование и его особенности.....	175
Зайнутдинова Умида Джалоловна	
Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlarini hisoblash va undirish samaradorligini oshirish yo'llari.....	179
Qurbonov Muxiddin Abdullayevich	
Mamlakatda soliq qarzdorligi vujudga kelishining asosiy sabablari va ularni qisqartirish yo'llari.....	184
Hakimov Ulug'bek Furqat o'g'li	
Mulk qiymatini baholash tushunchasi, baholash obyektlari, baholanadigan qiymat turlari.....	188
Izbosarov Boburjon Bahriddinovich, Yoqubboyev Ilhomjon G'ulomjon o'g'li	
O'zbekistonda sug'urta xizmatlarining zamonaviy transformatsiyasi.....	193
G. Adilova	
Biznes subyektlarida samaradorlik masalalarini o'yinlar nazariyasi usuli bilan baholash.....	197
Mardiyev Nurali	
Yengil sanoatda "lean production" konsepsiyasini tatbiq etishning amaliy jihatlar.....	203
Yaxyayeva Inobat Karimovna	
Soliq salohiyatini baholash usullari va ularning tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ta'siri tahlili	207
Borotov Sharofiddin Jumaqul o'g'li	
Ko'chmas mulk bozorini baholashning institutsional asoslari	213
Ishonqulov Nizamjon Fayzullayevich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm xizmatlarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.....	221
Amriyeva Shaxzoda Shuxratovna	
O'zbekistonning bank-moliya tizimi hamda unda Islom moliyasi	
instrumentlarini jalb etishdagi joriy tendensiyalar	226
Eshimov Alisher Dasmurodovich	
Tashqi savdoda notarif usullarni qo'llashning iqtisodiy oqibatlarini aniqlash	
metodologiyasi (rivojlangan davlatlar tajribasi).....	234
Norqobilov Akobir Iso o'g'li	
Reklama xizmatlari va uning subyektlar samaradorligini oshirishdagi imkoniyatlari.....	240
Rabbimov Elbek Abdulloyevich	
Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish asoslari	245
Imonqulov Nuriddin Qo'shmon o'g'li	
Tijorat banklari biznes ekotizimini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	250
Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li	
Majburiy tibbiy sug'urtaning vujudga kelishi va o'ziga xos xususiyatlari.....	256
Kenjayev Soxib Sayfiyevich	
O'zbekiston Respublikasida zamonaviy soliq ma'murchiligini joriy etish orqali budjet-soliq siyosati	
samaradorligini yanada oshirish.....	260
Yuldasheva Shaxnoza Xojiakbar qizi	
Jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida derivativlar bozorining roli	266
Shokirov Mirkamol Mirolim o'g'li	
Boshqaruv hisobida mas'uliyat markazlarini tashkil etish masalalari.....	274
Sobirov Otabek Olimjonovich	



Davlat moliyasini boshqarishda moliyaviy nazorat usullaridan samarali foydalanish yo'llari	277
Kultayev Farxod Shavkatovich	
Tijorat banklari foydasi va rentabillik ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi omillar tahlilini takomillashtirish	281
Normo'minov Temurbek Sheraliyevich	
O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari aktivlar sifatini oshirish yo'llari	284
To'ychiyev Otabek Shamshiyevich	
Venchur kapitalining mohiyati va O'zbekistonda venchur tizimini rivojlantirishning institutsional asoslari.....	288
Tadjibayeva Nigora Gulomjonovna	
Innovatsiyalar: zamonaviy iqtisodiyot uchun innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash zarurati.....	293
Malikova Dilrabo Muminovna, Tursunov Jahongir Ulug'bek o'g'li	
Budjet daromadlarining shakllanishida egri soliqlarning ta'sirini ko'p omilli ekonometrik modellashtrishda tahlil qilish.....	297
Abdunazarova Shahnoza Norqo'chqor qizi	
Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion jozibadorlikni oshirish yo'llari	302
Abdullayev Boburjon Akbaraliyevich	
Barcha tadbirkorlik subyektlariga teng raqobat sharoitini yaratishda soliq imtiyozlarining o'rni	306
Akbarov Akmalxon Akrom o'g'li	
Hisob siyosati va unda biologik aktivlar hisobini yoritib berish tartibini takomillashtirish	310
Mirzayeva Nargiza Batirovna	
Talabalarning oilali bo'lishiga ta'sir etuvchi omillarga iqtisodiy baholashda yangicha yondashuv.....	314
O. U. Shomurodov, A. A. Suyarov, Z. U. Uroqov, J. S. Urazov, A. T. Ablahatov	
Ways to Use the Experience of Foreign Countries in Creating a Beneficial Business Environment for Entrepreneurship And Improving Taxation	319
Mukhlisa Ikramova	
Aholi turmush darajasini oshirishda moliyaviy savodxonlikning o'rni va iqtisodiy rivojlanishga ta'siri	325
Yusupov Muhammadali Soxib o'g'li, J.D. Xojiyev	
Temir yo'l sanoat korxonalarida ijtimoiy-mehnat munosabatlarini boshqarish bo'yicha xorijiy tajriba.....	329
Kadirova Sharofat Amonovna	
Механизм внедрения аутсорсинговой деятельности в АО “Ўзтемирйўлийўловчи”	332
Н. Э. Кахарава	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish investitsiyalarni jalb qilishda xorijiy mamlakatlar tajribasi	337
Sharipov Bobur Anvar o'g'li	
“STEKLOPLASTIK” MJCHning bozordagi strategik holatini tahlil qilish	342
Musyeva Shoira Azimovna	
Agrar sektorda ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarishning nazariy masalalari	348
M. Sh. Nazarova, Z. S. Kazakova	
Methodological Foundations of Bank Lending and Classification of Factors Affecting the Features of Obtaining Loans.....	353
Raxmanova Laylo bahodirovna, A. Karimova	
Agrosanoat klasterlarda tovar-moddiy zaxiralar samaradorligini KPI orqali baholash uslubiyati.....	357
Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich	
Faol tadbirkorlar faoliyatida kambag'al oilalarni iqtisodiy-ijtimoiy holatini yaxshilash imkoniyatlari.....	362
Salamov Ibrohim, Nazarova Maryam Sharifovna, Kazakova Zulayxo Saloxiddinovna, Jonibekov Faxriddin Beknazarovich, Kudratov Rizo Turdibayevich, Ulmasova Oygul Baxtiyorovna, Xamdamova Nasiba Ablakulovna, Xudayberdiyeva Ma'rifat Umarovna	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar strategiyasi tahlilining o'ziga xos xususiyatlari	369
Tursunova Shaxnoza Farxod qizi	
Процессы цифровизации АО “Hududgazta'minot”	373
Хусанов Кахрамон Нишонович	
O'zbekistonda aholi turmush darajasini oshirish yo'llari.....	378
Abdullayeva Madina Kamilovna, Eldorbekov G'ofurbek Iskandarbek o'g'li	
Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik subyektlari uchun kredit tizimini takomillashtirish mexanizmi.....	381
Bobayev Isroiljon Abdinabiyeich	
Mamlakatga jalb qilingan xorijiy kapitalning tovarlar va xizmatlar importi salohiyatiga ta'sirini ekonometrik modellar bilan baholash.....	386
Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li	



O'zbekistonda bank xizmatlari raqobatbardoshligini baholash mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari.....	394
Sh. Madraimov	
Kapital bozorida sug'urta kompaniyalar institutsional investor sifatida	397
Xasanova Lola Mamasharifovna	
Yangi O'zbekiston strategiyasida institutsional islohotlarni yanada chuqurlashtirish va ko'p funksiyali raqamlashtirishning ilmiy asoslari	400
B. B. Berkinov	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari orqali jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirish mexanizmlari.....	409
G'afurov Umidjon Bahodir o'g'li	
Rivojlangan mamlakatlarda keksa fuqarolarning bandligini oshirish kam ta'minlangan aholi qatlamini qo'llab-quvvatlash usuli sifatida (Yaponiya tajribasi misolida).....	413
Karimov Bekzodjon Ilxomovich	
Tashqi savdoni oshirishda boj-tarif siyosatini takomillashtirish mexanizmlari	420
Pardayev Ilhomjon G'ulomjon o'g'li	
Финансы или корпоративные финансы	426
Уринов Бобур Насиллоевич	
In Ensuring Economic Development in the Country Green Economy and its Features	432
Akhunova Shakhistakhon Nomonjanovna, Abdusattorova Mokhirabonu Abdugoppor kizi	
Tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari	437
Jo'rayev O'ktam Panji o'g'li	
Сокращение уровня бедности в Узбекистане.....	443
Амирджанова Ситора Суннат кизи	
Paxtachilik sohasida ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligini oshirishning innovatsion yechimlari va uning foydaga ta'sirini baholash	448
S. B. Inoyatov	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlash amaliyotidagi muammolar va ularni barataraf etish yo'llari	453
Maxmudov Rahimjon Hamid o'g'li	
Mahalliy budjet daromadlarining nazariy va ilmiy asoslari	460
O'lokulova Feruza Mansurovna	
Kambag'allikni qisqartirish – aholi turmush farovonligini ta'minlashning muhim omili	463
Usmanov Baxodir Baxtiyorovich	
Raqamli marketingni rivojlantirish zaruriyati	469
Xalmuxamedova Zebaxon Babaxanovna	
Tijorat banklari o'rtasidagi raqobatni rivojlantirish orqali fond bozorida aksiyalar narxini barqarorligini ta'minlash istiqbollari	473
M. Yuldosheva	
Konchilik sanoati korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish mexanizmlarining ilmiy-nazariy asoslari	480
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
O'zbekistonda banklar moliyaviy xizmatlari va ular sifatining amaldagi holati tahlili	487
Mirzayev Mirza Abdullayevich	
Oliy ta'lim muassasalarining iqtisodiy samaradorlikning raqobatbardoshligini institutsional tahlil qilish mexanizmi.....	492
Saydullayeva Saodat Abdumajidovna	
Integrasiya sharoitida to'qimachilik sanoatining rivojlanishi	499
Ziyayeva Muhtasar Mansurdjanovna	
Auditorlik tekshiruvini tashkil etish va o'tkazish jarayonlarini takomillashtirish	503
Karamatova Noiba Husnitdinovna	
Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning nazariy jihatlarini	510
Mamatov Mamajan Axmadjonovich	
Экономическое сознание и экономическое мышление: теоретический анализ.....	517
Пардаев Мамаюнус Каршибаевич, Мухаммедов Мурод Мухаммедович	
O'zbekiston respublikasi tijorat banklari tomonidan qurilish korxonalarini kreditlashni takomillashtirish yo'llari	522
Sultanov Baxram Begdullayevich	



Роль искусственного интеллекта в современных технологиях медиаобразования в высших учебных заведениях.....	526
Самигова Гуландом Абдужаббаровна	
Talabalarga moliyaviy yordam dasturlari va ularning ta'lim sifatiga ta'siri	534
Mirzayeva Muhlisa Ubaydullo qizi	
Mintaqaviy investitsion jozibadorlik va investitsion siyosat: nazariy talqin	539
Muminov Akmal Tulkunovich	
Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida oliy ta'lim tizimining ta'siri	543
Nasimov Adiz Azamat o'g'li, Baxtiyorova Jasmina Jasurovna, Axrorov Zarif Oripovich	
Respublikada fermer xo'jaliklarga xizmat ko'rsatishni rivojlantirish va agroxizmatlar bozorini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari	548
Shukurov Ilxom Safarboyevich	
Turli mamlakatlarda oliy ta'limni moliyalashtirish yo'llari	555
Umarova Moxigul Maxmayunus qizi	
Dehqonchilikni innovatsion asosda rivojlantirishning xorijiy tajribasi	560
Yuldashev G'iyos Turabekovich	
Tijorat bank xizmat turlarini islomiy bank xizmatlari orqali rivojlantirish istiqbollari	564
Bayjanova Gozsal Sarsengaliyevna	
Qishloq xo'jaligi mahsulotini baholash va hisobga olishning uslubiy jihatlarini takomillashtirish	570
Boltayev Abror Sayitmuradovich	
Секреты интересного урока в начальной школе	577
Гараева Олеся Владимировна	
Iqtisodiyotni barqaror rivojlanishda yashil iqtisodiyotning o'rni	580
Ibragimova Gulchehra Toxirovna	
Mahsulot va xizmatlarni raqamli transformatsiyasini amalga oshirish algoritmi	584
Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, Bobojonov Azizjon Babaxanovich, Abdurakhmonov Abdumalik Abdurashidovich	
O'zbekiston Respublikasining soliq tizimi mamlakatda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish vositasi sifatida	591
Nabiyev Feruz Nurmurodovich	



TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI



Jo'rayev O'ktam Panji o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti o'qituvchisi,
Toshkent kimyo xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizdagi tijorat banklarining iqtisodiyotdagi o'rni va ularning investitsion faoliyati samaradorligini oshirish borasidagi xorijiy va mahalliy munosabatlar yoritilgan.

Bu borada maqoladga olimlarning nazariy qarashlari va tijorat banklarining investitsion faoliyatini rivojlantirish istiqbollari haqida so'z boradi. Shuningdek, bugungi kunda moliyaviy sektorni izchil isloh qilish davomida mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklari tomonidan bir qancha yirik investitsion loyihalarga ajratilgan kreditlar ijrosi hamda qimmatli qog'ozlar bozoridagi ishtiroki tahlil qilingan.

Muallif tomonidan tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish borasidagi ilmiy takliflar va nazariy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: investitsion faoliyat, investitsion loyiha, investitsiya jozibadorligi, investitsion faollik, tijorat banklari, kredit, qimmatli qog'ozlar, moliyaviy sektor.

Abstract: This article describes the role of commercial banks in our country in the economy and the foreign and domestic relations in improving the efficiency of their investment activities.

In this regard, the article talks about the theoretical views of scientists and prospects for the development of investment activities of commercial banks. Also, today, during the consistent reform of the financial sector, the execution of loans allocated to several large investment projects by commercial banks operating in our country and their participation in the securities market were analyzed.

The author presents scientific proposals and theoretical recommendations on increasing the investment activity of commercial banks.

Key words: investment activity, investment project, investment attractiveness, investment activity, commercial banks, credit, securities, financial sector.

Аннотация: В данной статье описывается роль коммерческих банков нашей страны в экономике, а также во внешних и внутренних связях, в повышении эффективности их инвестиционной деятельности.

В связи с этим в статье говорится о теоретических взглядах ученых и перспективах развития инвестиционной деятельности коммерческих банков. Также сегодня, в ходе последовательного реформирования финансового сектора, проанализировано исполнение кредитов, выделенных на ряд крупных инвестиционных проектов коммерческими банками, работающими в нашей стране, и их участие на рынке ценных бумаг.

Автор представляет научные предложения и теоретические рекомендации по повышению инвестиционной активности коммерческих банков.

Ключевые слова: инвестиционная деятельность, инвестиционный проект, инвестиционная привлекательность, инвестиционная деятельность, коммерческие банки, кредит, ценные бумаги, финансовый сектор.

1. KIRISH

Har qanday jarayon, faoliyat borki o'z-o'zidan bo'lmaydi, bunga ma'lum bir sharoit, eng birinchi o'rinda qonuniy huquq va erkinlik va mukammal ishlangan reja va g'oya talab etiladi, shundan keyin qolgani mehnat bilan amalga oshirish mumkin. Shuning uchun ma'lum bir faoliyat turlari borki, ularni rivojlantirmasdan iqtisodiyotni rivojlantirib bo'lmaydi, bunday masalalarni markazida, albatta, banklar turadi, chunki har qanday masalaning yechimida bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy qo'llab-quvatlash yotadi. Bunda ijtimoiy masalalarni ijobiy hal qilishning asosiy vazifalaridan biri banklarning investitsion faoliyatining barqarorligini ta'minlash, rivojlantirish, islohatlar o'tkazish va yangiliklar joriy qilish natijasida iqtisodiyotni, shu jumladan, moliya bozorini ham rivojlantirishga erishish mumkin.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-mayda "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-son Farmonida ^[1] banklarning investitsiyaviy jozibadorligini, bank xizmatlari ommabopligi va sifatini oshirish uchun bank sektorini tubdan transformatsiya qilish, banklarning yangi standartlarini joriy etishga qaratilgan bank tizimida kompleks o'zgartirishlarni amalga oshirish kabi bir qancha vazifalar belgilangan bo'lib, bu kabi islohotlarni tizimli olib borish banklarning investitsion faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Albatta, iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiyalarni keng ko'lamda eng foydali tarzda joylashtirish yangi mijozlarni jalb qilish sohasidagi raqobat kurashini kuchaytiradi. Sog'lom raqobat kurashida faol qatnashish uchun tijorat banklari o'z investitsion faoliyatini takomillashtirishi, shu jumladan, qimmatli qog'ozlar bozorida faol investitsiya siyosatini olib borishlari lozim. Investitsiya faoliyati tijorat banklarining investitsion yirik loyihalarda qatnashishi hamda qimmatli qog'ozlar bozoridagi imkoniyatlaridan foydalanishni kengaytirish, muayyan daromad olish, bank likvidligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi ^[2].

2. MAVUZGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorij olimlari Elvira Sojli va Wing Wah Thamlarning tadqiqotlariga ko'ra, mamlakat investitsiya muhiti qanchalik qulay bo'lsa, investorning tadbirkorlik riski shunchalik past darajada bo'ladi va bu investorlarning kirib kelishini faollashtiradi. Aksincha, investitsiya muhiti noqulay bo'lsa, risk darajasi yuqori bo'ladi. Bu esa, investitsiya qabul qiluvchi tomon sarf-xarajatlarning o'sishiga olib keladi. Investitsiya muhitining holati faqat investor uchun emas, balki investitsiya qabul qiluvchi uchun ham muhimdir ^[3]. Bundan ko'rinib turibiki, tijorat banklarini investor pozitsiyasida qarasak, har qanday o'rta va yirik turdagi loyihalarning risklilik darajasi muhim ahamiyat kasb etadi, bunda foyda oluvchi tujorat banki, loyihaga kapital jalb etuvchi retsipient loyiha rahbari hisoblanadi, investitsion loyihalarni risklilik darjasini minimallashtirish natijasida uni moliyalashtirishga erishishi mumkin bo'ladi.

Yana bir iqtisodchi olim Yurii A.Rolikning fikricha, investitsion jozibadorlik bu potensial investorga mavjud mablag'larni investitsiya qilish maqsadida ma'lum bir investitsiya obyekti boshqalariga qaraganda qanchalik jozibador ekanligini baholashga imkon beradigan xususiyatlar to'plami hisoblanadi ^[4].

Xorijiy iqtisodchi olim Volik Olga Andreevnaning ilmiy qarashlarida investitsion loyihalarning jozibadorligining oshishi zamonaviy raqobat sharoitida kompaniyaning samarali ishlashi, rivojlanishi va o'sishiga yordam beradi. Bunda mamlakat bank-moliya tizimi, qimmatli qog'ozlar bozori, qolaversa, tijorat banklarining yirik loyihalarni moliyalashtirishda faol qatnashishi muhim rol o'ynaydi ^[5].

Iqtisodchi olim Svitlana Gutkevychning ilmiy tadqiqot ishlarida, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda investitsiya jarayoni tijorat banklari konyunkturasi ta'siriga, investitsiyalarni moliyalashtirish manbalariga va hajmiga bog'liq hisoblanadi ^[6].

Taniqli iqtisodchi olim Takhumova Oksananing qarashicha, tijorat banklarining investitsion jozibadorligi bevosita mamlakatdagi investitsiya siyosatiga va yaratilgan investitsion muhitiga bog'liq. Xususan, investitsiya muhiti uchta elementdan iborat tizim sifatida ko'rib chiqiladi: investitsiya salohiyati, investitsiya riski va qonunchilik shartlari ekanligini tadqiq etgan ^[7].

Mahalliy olim Samariddin Elmirzayevning fikriga ko'ra, mamlakatdagi tijorat banklari o'z dividend siyosatida dividend va reinvestitsiya o'rtasidagi me'yoriy nisbatni aniqlashi, minoritar aksiyadorlar huquqlarini himoya qilishi, aksiyalarning bozordagi narxlarining o'sishiga erishishi kabilar banklarning investitsion jozibadorligini oshirishga imkon beradi, bu esa o'z-o'zidan mamlakatning investitsion jozibadorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, deya ta'kidlagan ^[8].

3. TADQIQOT METODIKASI

Ushbu maqolada tadqiqot metodologiyasi sifatida grafika usulda guruhlashtirish, iqtisodiy-statistik tahlil hamda sintezlash, mantiqiy fikrlash kabi iqtisodiy tadqiqot usullaridan keng foydalanildi.

4. TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI


Tijorat banklari tomonidan investitsion faoliyat olib borishdan asosiy maqsad ularning daromadlilikligi va likvidlilikligini (bankning faoliyati bo'yicha majburiyatlarini o'z vaqtida bajara olish qobiliyati) ta'minlashdan iborat. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida tijorat banklarining investitsiya siyosati bank faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi va banklarning likvidlilikligini ta'minlaydi. Banklarning investitsion faoliyati turli xil qimmatbaho qog'ozlar: oddiy va imtiyozli aksiyalar, obligatsiyalar, davlat qarzдорlik majburiyatlari, depozit sertifikat-lari, veksel va boshqalarga mablag'larini qo'yish orqali amalga oshiradilar ^[9].

Shu o'rinda aytish joizki, so'nggi yillarda banklarni e'tibori investitsiya faoliyatining quyidagi nufuzli yo'nalishlariga qaratilgan: yirik aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarini boshqarish, investitsiya va xususiylashtirish



fondlari bilan ishlash. Bizning fikrimizcha, investitsiyalarning funktsional tuzilmasi 1-rasmga muvofiq barcha mablag'larni o'z ichiga olishi zarur. Bunda, ularni qayta ishlab chiqarish tuzilmasini, texnologik, mulk shakllarini, tarmoqlarini mintaqaviy va hududiy, moliyaviy, iqtisodiy, moliyalashtirish manbalari va jamg'arma qo'yilmalari hududiy tuzilmasini o'z ichiga olishi zarur. Mana shu holda investitsiyalarning funktsional tuzilmasi to'liq shallangan bo'ladi. Bu tuzilmaning to'g'ri tashkil etilishi banklarning investitsiya portfelining to'g'ri tashkil etish imkonini beradi ^[10].

Bank samarali investitsiya faoliyatining asosiy maqsadi, eng samarali va xatarsiz moliyaviy dastaklarni tanlab olish orqali investitsiya strategiyasining amalga oshirilishini ta'minlash hisoblanadi. Asosiy maqsaddan kelib chiqib, tanlab olingan strategiya hamda uning amaliy investitsiya faoliyatini amalga oshirish xususiyatlarini hisobga olib, bank investitsiya portfelini shakllantirishning aniq maqsadlari tizimi quriladi.



1-rasm: Investitsiyalarning funktsional tuzilmasining asosiy tasnifi ^[11]

Bank investitsiya portfeli samarali boshqaruvining ma'nosi, investitsiya qo'yish sharoitini yaxshilashdan iboratdir. Buning uchun qimmatli qog'ozlar majmuiga alohida olingan qimmatli qog'oz nuqtai nazaridan erishib bo'lmaydigan va faqatgina ularni kombinatsiyasida mumkin bo'lgan investitsiya xususiyatlarini singdirish kerak.


Banklarning investitsiya siyosatini asosiy maqsadlariga quyidagilar kiradi:

- 1) Tijorat bankining uzoq muddatli istiqbolda samarali faoliyatini ta'minlaydigan jamg'arma o'sishining yuqori sur'atlariga erishish;
- 2) Bank daromadi o'sishining yuqori sur'atlarini ta'minlash.

Investitsiya faoliyatini amalga oshirish katta moliyaviy resurslarni, shu jumladan, qarzga olinganlarini ham safarbar qilinishini talab qilgani sababli, tijorat banki investitsiya portfelini shakllantirish paytida unga doimiy to'lovga qobillikni ta'minlaydigan yuqori darajali joriy daromadli loyihalarni kiritish lozim. Bundan tashqari, joriy daromadlarning bir qismi investitsiya faoliyati optimal tuzilmasini saqlab turish maqsadida jamg'armalashtirilishi mumkin;

- 3) Bank investitsiya risklarini minimallashtirilishini ta'minlash. Daromad o'sishining yuqori sur'atlarini ta'minlaydigan alohida olingan investitsiya dastaklari, yuqori darajali risklarga ega bo'lishi mumkin;
- 4) tijorat banklarining investitsiya faoliyati likvidligini yetarli darajasini ta'minlash. Investitsiya portfelini samarali boshqarilishiga erishish, jamg'armani nisbatan foydali investitsiya dastaklariga tez fursatda qayta investitsiyalash imkoniyatlarini ta'minlash uchun investitsiya portfelining ma'lum qismi yuqori likvidli xarakterga ega bo'lishi lozim. Investitsiya portfelining likvidlik darajasi davlatning investitsion iqlimi, investitsiya bozori kon'yunkturasining jo'shqinligi hamda banklar investitsiya faoliyatining o'ziga xos xususiyati bilan belgilanadi.

Qimmatli qog'ozlarni milliy bozori oborotlari o'sgani sari banklar uning eng faol institutsional qatnashchilariga aylanib, emissiya faoliyati hajmlarini, amalga oshiriladigan operatsiyalar nomenklaturasini hamda ko'rsatiladigan operatsiyalar assortimentini kengaytirib boradilar.

2-rasm: Bank investitsiya strategiyasining maqsadlari ^[12]

Bank samarali investitsiya faoliyatining asosiy maqsadi, eng samarali va xatarsiz moliyaviy dastaklarni tanlab olish orqali investitsiya strategiyasining amalga oshirilishini ta'minlash hisoblanadi. Asosiy maqsaddan kelib chiqib, tanlab olingan strategiya hamda uning amaliy investitsiya faoliyatini amalga oshirish xususiyatlarini hisobga olib, bank investitsiya portfelini shakllantirishning aniq maqsadlari tizimi quriladi.

Investitsion faoliyat va uning manbalari iqtisodiyot rivojining jadal suratlarini belgilab berish bilan birga u har qanday tizimda ko'p jihatdan mintaqa va mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sib borishini va taraqqiy etish darajasini ham ifoda etishi lozim.

Jahon amaliyotida davlatning investitsion jarayonlarga aralashuvining qo'yidagi shakllari keng qo'llaniladi:

- Budget hisobidan subsidiyalar berish;
- Xorijiy kreditlarning bir qismini ajratish;
- Imtiyozli kreditlash;
- Asosiy fondlarni tezlashtirilgan amortizatsiya siyosati;
- Reinvestitsion foydaga, chetdan olib kelishdan uskuna, materiallar, xom ashyoga va chetga eksport qilinadigan tayyor mahsulotga imtiyozli soliqlar belgilash.

Bugungi kunda, O'zbekiston amaliyotida 35 ta bankdan 16 tasining aksiyalarini Toshkent fond birjasida xarid qilish mumkin bo'lib, ular yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan sotib olinayapti. Birja orqali esa faqat ikkita bank – Asia Alliance Bank va Kapitalbankning obligatsiyalarini sotib olish imkoniyati mavjud bo'lib, tijorat banklari uchun qimmatli qog'ozlar bozori imkoniyatlarini bir qancha ko'rsatkichlar misolida ko'rishimiz mumkin (1-jadval).

1-jadval: Tijorat banklari jamlanma balansi ^[13]

Ko'rsatkichlar nomi	01.12.2022		01.12.2023		O'zgarishi, foizda
	mlrd. so'm	ulushi, foizda	mlrd. so'm	ulushi, foizda	
Aktivlar					
Kassadagi naqd pul va boshqa to'lov hujjatlari	18 048	3,2%	18 176	2,9%	1%
Markaziy bankdagi mablag'lar	32 247	5,8%	23 231	3,7%	-28%
Boshqa banklardagi mablag'lar-rezident	16 109	2,9%	24 487	3,9%	52%
Boshqa banklardagi mablag'lar-norezident	54 754	9,9%	32 914	5,2%	-40%
Investitsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar	30 053	5,4%	31 789	5,0%	6%
Mijozlarning moliyaviy instrumentlar bo'yicha majburiyatlari	549	0,1%	2 357	0,4%	329%
Kredit qo'yilmalari, (sof)	369 690	66,6%	449 445	71,2%	22%
Asosiy vositalar, (sof)	13 433	2,4%	18 575	2,9%	38%
Aktivlar bo'yicha hisoblangan foizlar	12 376	2,2%	19 276	3,1%	56%
Bankning boshqa xususiy mulklari	3 120	0,6%	4 203	0,7%	35%
Boshqa aktivlar	4 959	0,9%	6 994	1,1%	41%
Jami aktivlar	555 339	100%	631 446	100%	14%



Mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan jamlanma balansi aktivlarida investitsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni sotib olishda 2022-yil dekabr oyi holatiga nisbatan 2023-yil dekabr oyida 31 mlrd 789 mln. so'm bilan 6 foiz o'sishga erishganini ko'rishimiz mumkin.

Aksariyat hollarda banklar bozordagi operatsiyalar soni va aylanmasi bo'yicha yetakchi hisoblanadi. Masalan, 30 kun davomida amalga oshirilgan bitimlar soni bo'yicha O'zsanoatqurilishbank va Ipotekabank OTP guruhi yetakchilik qilmoqda. Birinchi bank tomonidan 24.085 ta, ikkinchi bankda 8.442 ta bitim amalga oshirilgan. Bitimlar Top 10 taligida Hamkorbank, Ipak yo'li bank va Aloqabanklar yetakchilik qilib kelmoqda. Shu bilan birga, yiliga 88.414 ta tranzaksiya amalga oshirgan O'zsanoatqurilishbank 365 kunlik bitimlar soni bo'yicha ham yetakchilik qilmoqda.

Aksiyalar likvidligi bo'yicha ham bank sektori yetakchilik qilmoqda, 2023-yil noyabr oyida eng likvidli aksiyalar Ipak Yo'li bank aksiyalari bo'lgan (bitimlar soni bo'yicha eng yaxshi 10 ta aksiya eng likvidli qimmatli qog'ozlar sifatida qabul qilindi) ^[14].

Shunday qilib, bank tizimining barqarorligini, shuningdek, ularning qimmatli qog'ozlar bozorida faol ishtirokini hisobga olgan holda, aksiyalarni sotib olayotganda tijorat banklarining aksiyalariga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir, bu esa o'z navbatida tijorat banklarining investitsion faolligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

5. XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi ko'rsatgichlarga asosan xulosa qilish mumkinki, tijorat banklarning sanoat korxonalarining moliyaviy jihatdan qo'llab – quvvatlash jarayonida faol ishtirok etayotganligi, iqtisodiy nochor korxonalar banklar balansiga olgan holda ular faoliyatini tiklayotganligi nafaqat investitsion faollikning oshishiga, balki yuqori sifatli va raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish hamda yangi ish o'rinlari yaratilishi muhim o'rin tutmoqda.

Demak, yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan kelib chiqib, banklarning investitsion faoliyatining samaradorligini oshirish uchun quyidagi takliflarni keltirish mumkin:

1. Tijorat banklarining investitsiya faoliyati kengaytirilishini yanada rag'batlantirish, iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashga yo'naltirilgan uzoq muddatli investitsiya loyihalarini moliyalash hajmlarini oshirish uchun ularning resurs bazasini mustahkamlash.
2. Tijorat banklarida investitsion portfelni diversifikatsiyasini yanada takomillashtirish lozim.
3. Banklarimiz uzoq muddatli resurlarini ko'paytirish vositasida uzoq muddatli samarador loyihalarga investitsiyalarni yo'naltirish lozim. Uzoq muddatli resurslarni ko'paytirish uchun avvalambor, banklarni kapitallashuv darajasini oshirish, keyin banklar tomonidan uzoq muddatli deposit sertifikatlarini chiqarish, aholi va yuridik shaxslarning muddatsiz depozitlari o'rniga uzoq muddatli depozitlarini ko'proq jalb qilish lozim. Bunga har xil imtiyozlarni joriy qilish, jozibador omonat turlarini tashkil qilish orqali erishish mumkin.
4. Xorijiy banklarda investitsion risklarni boshqarishda keng qo'llaniladigan usullardan foydalanishni mahalliy banklar amaliyotida joriy etish maqsadga muvofiq.

Yuqoridagi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni amaliyotga qo'llash orqali tijorat banklarining investitsion faolligini yanada oshirishga, qolaversa, mamlakat investitsion jozibadorligiga parallel ta'sir ko'rsatishiga ishonamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-mayda "2020 – 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-son Farmoni.
2. Jo'rayev O. Position Of Banks In Financing Investment Projects //Solution of social problems in management and economy. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 189-193.
3. Elvira Sojli, Wing Wah Tham. "The Impact of Foreign Government Investments: Sovereign Wealth Fund Investments in the United States" In Institutional Investors in Global Capital Markets. Published online: 8 March 2015; 207-243. www.scopus.com
4. Yurii A.Rolik. A Complex Approach to Evaluating the Innovation Strategy of a Company to Determine its Investment Attractiveness.// Procedia – Social and Behavioral Sciences, Volume 99, 6 November 2013, pages 562-571; https://www.sciencedirect.com
5. Волик Ольга Андреевна, Солнцев Оксана Глебовна. Повышение инвестиционной привлекательности торговых предприятий. // Вестник университет №6, 6; (2018).
6. Svitlana Gutkevych. Investment Attractiveness of Industries: Features and Trends.// Baltic Journal of Economic Studies, vol. 5, № 3, 2019. P. 9;



7. Takhumova Oksana V., Kasatkina Elena V., Maslihova Elena A., Alexey V.Yumashev, Maria V.Yumasheva. The main directions of increasing the investment attractiveness of the Russian regions in the conditions of institutional transformations.// Revista ESPACIOS, Vol. 39 (Number 37) 2018. – P.12.
8. S.Elmirzayev. Rivojlangan mamlakatlarda dividend siyosati tahlili va Dividend Aristokratlari.// “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy-elektron jurnali, №2, 2020. – B.11.
9. H.Imomov. “Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish”. O’quv-qo’llanma. –T: 2011-yil. –27-bet.
10. Radikovich S. I. Peculiarities Of Interaction of the Banking System with the Real Sector of the Economy //Eurasian Journal of History, Geography and Economics. – 2022. – T. 10. – C. 48-55.
11. Ataniyazov J. X., qizi Karimbekova A. R. Xorijiy investitsiyalar o’zbekiston iqtisodiy taraqqiyotining omili sifatida // SCHOLAR. – 2023. – T. 1. – №. 7. – C. 4-9.
12. Radikovich S. I. Main Ways To Strengthen The Integration Of The Banking And Real Sectors //European Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2022. – T. 6. – C. 7-16.
13. O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi – www.cbu.uz
14. Murtazaevich K. S. The Role of Foreign Direct Investment in the Socio-Economic Development of the Country //Global Scientific Review. – 2023. – T. 19. – C. 17-24.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.